

TILLARNI O'QITISHDA PSIXOLINGVISTIKANING METODLARI VA NAZARIY AHAMIYATI

Muxamadiyeva Nodira Abdivaliyevna

Erkin tatqiqotchi

nodiramuxamadiyeva2233@gmail.com

Muxamadiyeva Gulandon Abdivaliyevna

ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada psixolingvistika fanining tatqiqot metodlari qisqacha yoritilgan bo'lib, bunda tatqiqotlarni olib borishda umumiy metodologiya, maxsus ilmiy metodologiya va maxsus ilmiy tadqiqot usullardan foydalanilishga alovida e'tibor berilgan. Har qanday ilmiy tadqiqot samarali olib borilishida to'g'ri va mos tanlangan metodlar unumli va ta'sirli hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *psixolingvistika, tatqiqot usullari, lingvistik ma'lumotlar.*

Psixolingvistika fani paydo bo'lganiga ko'p vaqt bo'lмаган bo'lsada, ammo u juda ham ahamiyatli va kerakli yo'nalish ekanligi o'z isbotini topdi. Sababi, bu yo'nalishni o'rganish jarayonida boshqa fanlar bilan ham chambarchas bog'liqligini his qilishingiz mumkin.

Psixolingvistikani qisman tilshunoslik va qisman psixologiya deb hisoblamaslik kerak. Bu murakkab fan bo'lib, u tilni o'rgangani uchun til fanlariga va uni ma'lum bir jihatda - psixik hodisa sifatida o'rgangani uchun psixologik fanlarga kiradi. Til jamiyatga xizmat qiluvchi imo-ishora tizimi bo'lganligi sababli, psixolingvistika ham ijtimoiy muloqotni, jumladan, bilimlarni loyihalash va uzatishni o'rganadigan fanlar qatoriga kiradi.

Psixolingvistikaning **predmeti** - nutqni ishlab chiqarish va uni idrok etish jarayonlarida tilning (har qanday yoki ma'lum bir milliy) tuzilishi bilan bog'liqligi hisoblanadi. Bu esa bir tomonidan - Psixolingvistik tadqiqotlar insonning nutq faoliyatiga nisbatan lingvistik qobiliyatini tahlil qilishga qaratilsa, ikkinchi tomonidan - til tizimiga ahamiyat qaratadi.

Psixolingvistikaning **maqsadi** esa bu - mexanizmlar (nutqni hosil qilish va idrok etish) ishining o'ziga xos xususiyatlarini jamiyatdagi nutq faoliyati funksiyalari va shaxs rivojlanishi bilan bog'liq holda ko'rib chiqishdan iborat [4].

Ana endi bu fanning tatqiqot usullariga to'xtaladigan bo'lsak, ular 3 xil turga bo'linadi.

- umumiy metodologiya;
- maxsus ilmiy metodologiya;
- maxsus ilmiy tadqiqot usullari.

Umumiy metodologiya dunyoqarash falsafasidan, umumiylididan iborat. Nutq sohasidagi har bir mutaxassis til nazariyasini o'rganish uchun o'ziga xos falsafiy konsepsiyanı tanlaydi. Nutq faoliyati faqat uning tarkibiga xos bo'lgan o'ziga xos ichki qonunlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi [1].

Maxsus ilmiy metodologiya (maxsus) uslubiy tamoyillarni, turli tushuncha va farazlarni, tushuncha va qonuniyatlarni o'z ichiga oladi.

Psixolingvistikada qo'llaniladigan tadqiqot usullarining 4 ta asosiy guruhi mavjud:

➤ tashkiliy - nutqni shakllantirish qonuniyatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi qiyosiy usul (nutq faoliyatining turli tomonlarini tahlil qilish), murakkab usuli (fanlararo tadqiqot) va uzunlamasina usul (nutq tarkibiy qismlarining rivojlanishini kuzatish);

➤ empirik, *xolis kuzatish* (tilning sirpanishlari, aniq gaplarni tahlil qilish) va o'z bayonotlari hamda nutq ushubini tahlil qilish. Empirik usullarga suhbat, testlar, anketalar kiradi;

➤ izohlovchi (asosiy tamoyil - har qanday faktlarning mohiyatini tushunish uchun ularni ilmiy nazariyalar bilan birgalikda ko'rib chiqish);

➤ qayta ishlash (olingan faktlarni tavsiflash va statistik usul).

Biz bilamizki, lingvistika sohasi ko'p qirrali va ichiga boshqa sohalarni ham qamrab oladi. Turli fan sohalarini o'quvchilarga ilmiy asarlar yordamida yetkazadi, targ'ib qiladi yoki rad etadi. Psixologiya sohasi o'quvchi talabalarning xarakter, fe'l atvorlarini so'zlasa, psixolingvistika masalan bir tilni o'rganish jarayonidagi holatlar, muammolar, o'quvchi psixologiyasi, qanday holatda tez va oson o'rganishi, obyektni qanday qilib oson o'zlashtirishi kabi muammolar bilan shug'ullanadi. Bu fanning o'rganadigan doirasi kengdir.

Bundan tashqari bu fanni chuqur o'rganish natijasida ko'pgina muammolarni yechish ham mumkin. Masalan: chumolilar, delfinlar va maymunlar bir-biri bilan nima va qanday gaplashadi? Inson nutqining xususiyatlariga ko'ra ruhiy kasallikni qanday aniqlash mumkin? Nima uchun matnlarda ba'zi xatolar tez-tez uchraydi, boshqalari kamroq uchraydi, ba'zilari darhol ko'rindi, boshqalari esa sezilmasligi mumkin? Nega chet tilini o'z ona tili kabi o'rganish hech qachon mumkin emas? [2].

Yuqoridagi kabi o'z yechimini kutayotgan savollar bisyor.

Vaqt o'tishi bilan tilshunoslar tilshunoslikni bir til bilan cheklab qo'ymaslik kerak degan xulosaga kela boshladilar. Til insonning hissiy va aqliy xulq-atvorining yig'indisi, uning tirik mayjudot sifatida tashkil etilishi, uning turmush tarzi, u yashayotgan jamiyat bilan, uning ijodi - texnik, badiiy, aqliy, tarix bilan bog'liq. Shuning uchun til fani ko'plab - aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bilan aloqa izlashi kerak. Masalan, filologiya, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, etnografiya, semiotika, tarix va hatto matematikani nomlaylik [3]. Tilshunoslar o'z tadqiqotlari uchun nafaqat turli fanlarda erishilgan ma'lum faktlardan foydalanadilar, balki ularda qo'llaniladigan tadqiqot usullarini ham muvaffaqiyatli o'zlashtiradilar (masalan, matematik statistika usullarini qo'llash juda samarali bo'lib, bu - xususan, fanlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Jumladan, tilshunoslikning yangi yo'nalishi - miqdoriy tilshunoslik). O'z navbatida tilshunoslik ham turdosh fanlarni boyitib bordi. Masalan, lingvistik ma'lumotlar ma'lumi tarixiy voqealarni yoritishga yordam beradi, ularning sanasi, joylashuvi va boshqalarni ko'rsatadi.

Lekin tilshunoslikning chet tilini o`qitish metodikasiga keltingan bebafo foydasini alohida ta`kidlash lozim. Tilshunoslik tilning to'liq tavsifini beradi va bu o'qituvchiga xabardorlik tamoyiliga rioya qilgan holda uni o'rgatish imkonini yaratadi. O'qituvchi bir qator lingvistik atamalardan ("leksika", "fonetika", "grammatika", "gap bo'lagi", "gap bo'laklarining kategoriyalari" - grammatik zamon, ot holatlari va boshqalar) foydalanib, muayyan til hodisalari, tilshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar va ulardan istisnolar va boshqalarni amaliyotga o'tkazishadi.

Psixolingvistika mustaqil fan sifatida XX – asrning o'rtalarida shakllana boshladi va uning nomi vanihoyat Miller va MakNilning "Psixolingvistika" asari nashr etilgandan so'ng aniqlandi. Paydo bo'lganiga ko'p bo'lmasa ham respublikamizdagi psixolingvistlar ham shu sohada anchagina ilmiy izlanishlar olib borishmoqda va o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida dolzarb maqolalar yozishmoqda. Jumladan, psixolingvistika asoslarini o'rganishda, pedagogika fanlari nomzodi (nemis tili bo'yicha) NamDU Saidumar Saidalievning hissalari kattagina. Bu inson taklifiga ko'ra dastur ishlab chiqilib, psixolingvistika maxsus kurs sifatida 1998 yilda universitetning chet tillari, rus tili va adabiyoti, ona tillari bo'yicha o'qituvchilar tayyorlash amaliyotiga kiritildi. Hozirda bunday maxsus kurs nafaqat Namangan davlat universitetining filologiya kafedralarida, balki respublikamizning ko'pgina oliv o'quv yurtlarida ham o'qitilmoqda. Bundan tashqari Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetida ham bu sohada malakali va tajribali ustozlarimiz bor. Ulardan biri filologiya fanlari nomzodi Nazirova Shahnoza Olimjonovnadir. Bu fanni talaba yoshlarga hayotiy misollar orqali chuqur o'rgatib kelayotgan ustozlarimizdan. Demak aytishimiz mumkinki, yaqin kelajakda tajribali va ilmsevar yoshlarimiz safi yanada kengayadi.

Ushbu ta'riflar orqali psixolingvistika mavzusiga qarashlarning evolyutsiyasini kuzatish mumkin. Dastlab, u so'zlovchi va tinglovchining niyatları (nutq niyatları) yoki holatlarining (til qobiliyati) xabarlar tuzilishiga nisbati, til tizimidan foydalangan holda kodlash va shunga mos ravishda dekodlash jarayoni yoki mexanizmi sifatida talqin qilingan. Bunda muloqot ishtirokchilarining "holatlari" faqat ong holatlari, aloqa jarayoni deganda esa ayrim ma'lumotlarni bir individdan boshqasiga o'tkazish jarayoni tushunilgan. Keyinchalik, nutq faoliyati g'oyasi paydo bo'ldi va u endi ikki muddatli tizim – til qobiliyati-til emas, balki uch muddatli tizim – til qobiliyati-nutq faoliyati-til va nutq faoliyati shakllana boshladi. Oldindan belgilangan tarkibni kodlash yoki dekodlashning oddiy jarayoni sifatida emas, balki mazmuni bo'lgan jarayon sifatida tushuniladi.

Bunga parallel ravishda, til qobiliyatini tushunish kengayib, chuqurlasha boshladi. U nafaqat ong bilan, balki insonning ajralmas shaxsiyati bilan bog'liq bo'la boshladi [5]. Nutq faoliyatini talqin qilish ham o'zgarishlarga duch keldi. U aloqa nuqtai nazaridan, muloqotning o'zi esa - ma'lumotni bir shaxsdan boshqasiga o'tkazish sifatida emas, balki jamiatning ichki o'zini o'zi boshqarish jarayoni sifatida qarala boshladi (ijtimoiy guruh). Ya'ni psixolingvistikating diqqat markazida doimo inson turadi. Uning muhim hususiyati esa inson omilidir.

Inson nutqni yaratadi va uni idrok etadi [6]. Psixolingvistika bu omilni nafaqat nutqning, balki tilning o'zining ham xarakterini va mohiyatini anglaydigan majburiy omil sifatida o'z modellarining tavsiflari, asos qilib olingan hukmlariga faol tatbiq qiladi.

Xulosa.

Tajribalar ko'p sonli o'quvchilar orasida o'tkaziladi va albatta ancha vaqtini oladi. Tajribalardan maqsad esa, chet tilini o'z ona tilimizdek oson o'rganish uchun metodlar va usullar o'ylab topish hamda ularni amalda qo'llay olishdan iboratdir.

Psixolingvistika va an'anaviy tilshunoslikni farqlash imkonini beradigan uchta muhim omilni xulosa o'rnida aytib o'tish o'rnlidir.

1. Psixolingvistika tilni emas, balki nutqni o'rganish bilan shug'ullanadi, ya'ni, tubdan yangi omil - insonni joriy qildi.

2. Gapiruvchi (tinglovchi) omili bilan birga holat omili ham kiritiladi: nutq har doim qandaydir muayyan vaziyatda amalga oshiriladi. Til tizimi vaziyat momentidan mustaqil, barqaror narsa sifatida qaraladi. O'z navbatida, nutq faolligi ma'lum bir vaziyatga bog'liq: so'zlovchining yoshi, uning bilim darajasi va boshqalar. So'nggi paytlarda gender omili faol o'rganilmoqda. Masalan, matnning ba'zi sof lingvistik parametrlariga ko'ra, uning muallifi erkak yoki ayol ekanligini yuqori aniqlik bilan aytish mumkinligi ko'rsatilgan.

3. Yana bir muhim omil - bu tajriba. Nutqni idrok etish va hosil qilish jarayonlarini o'rganib, psixolingvistika nutq faoliyatining turli modellarini taklif qiladi, ular albatta ona tilida so'zlashuvchilar bilan tajribada sinab ko'rildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abrahamsen, Adele. 1987. Bridging boundaries versus breaking boundaries: Psycholinguistics in perspective. In *Special issue: Psycholinguistics as a case of cross-disciplinary research*. Guest edited by William Bechtel. *Synthese* 72.3: 355–388 p.
2. Altmann, Gerry. 2001. The language machine: Psycholinguistics in review. *British Journal of Psychology* 92.1: 129–170 p.
3. А.А. Реформатский, Введение в Языковедение. Учебник для студентов филологических специальностей высших педагогических учебных заведений РФ. Аспект Пресс, Москва. 1996.
4. Blumenthal, Arthur. 1987. The emergence of psycholinguistics. In *Special issue: Psycholinguistics as a case of cross-disciplinary research*. Guest edited by William Bechtel. *Synthese* 72.3: 313–323.
5. Шварева Л.В., Рыженкова А.В. Психолингвистика обучение. Психолингвистика: междисциплинарный подход в обучении иностранным языкам. (https://gm2irk.ru/pronunciation/psiholingvistika-obuchenie-psiholing_vistika-v-obuchenii-russkomu-yazyku-uchebnoe/).
6. Sh.Usmonova. Psixolingvistika. Ma'ruzalar kursi. O'zMU, Toshkent 2014. 7-8 b.